

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING KASBIY VA SHAXSIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

*Samarqand viloyati Payariq tumani
Chelak shahar 26-son DMTT psixologi
Usmonova Mubora Bolxievna*

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining kasbiy va shaxsiy sifatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, pedagogik tamoyillar va psixologik metodlari orqali asoslab berildi.

Kalit so'zlar: intellekt, boshqaruv faoliyati, boshqaruvchi shaxs, psixologik bilim, pedagogik mahorat.

WAYS OF FORMING THE PROFESSIONAL AND PERSONAL QUALITIES OF THE DIRECTOR OF A PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION**Annotation**

This article analyzes the professional and personal qualities of the director of a preschool educational organization from a scientific and theoretical point of view and substantiates them using pedagogical principles and psychological methods.

Keywords: intellect, management activity, managerial personality, psychological knowledge, pedagogical skills.

XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlar, dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimining bosh maqsadi ham bevosita ijtimoiy-gumanitar fanlarni puxta biladigan, jahon maydonida o'z bilimi orqali raqobatlasha oladigan, o'zining fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, Vatani hamda millatiga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'ularini maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarida shakllantirishga yo'naltirilgan.

Shu o'rinda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni intellektual, jismoniy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolalarni maktabga sifatli tayyorlash maqsadida turli to'garaklar, ma'naviyat va ekologiya xonalari, kichik muzey, kutubxonalar tashkil etish borasidagi an'analarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiq. Chunki kitobga, san'atga, ilmga, umuman,

kelajakda muayyan kasbni egallashga bo'lgan qiziqish bolalarda ayni shu davrda shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tashkilotdir. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo hali sohada yechimini kutayotgan qator kamchiliklar bor. Jumladan, joylardagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moddiy-texnik bazaning nochorligi, malakali kadrlar yetishmasligi, sifatli oziq-ovqat ta'minotining pastligi kabilar bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olishni ta'minlashga imkon bermayapti.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqaradigan shijoatli va jonkuyar direktorlarga bo'lgan ehtiyoj kun sayin oshib bormoqda. Chunki men aynan direktor "shijoati va jonkuyarligi" haqida gapridim-bu bejizga emas. Rahbarlik atamasini ishning ko'zini biladigan, kasbiga mehrini berib, o'zi, oilasi va butun el-yurti o'ylab mehnat qiladigan, boshqaruv faoliyatini jon dildan seva olgan insonga nisbatan ishlatilishi mumkin. Rahbarlik yuksak aql-farosat, ko'p kuch-g'ayrat, izlanish va topqirlikni, o'z ustida tinmay ishlashni, o'rni kelganda, zaruriy tadbirkorlikni talab qiladi. Birinchi prezidentimiz ham yangi rahbar saylamoqchi bo'lsalar, avvalo, uning qaysi sifat va xususiyatlarini inobatga olish kerakligi haqida shunday deganlar:—...boshqalar bilan teng gaplashdigan, dardu-tashvishlarini baham ko'rishga tayyor bo'lgan, boshqalardan ko'ra uzoqni ko'ra oladigan, chuqurroq o'ylaydigan, rahbar ertangi kunni bir emas balki ikki qadam uzoqroq ko'rishi, o'zini emas xalqning dardu-g'amini, uning taqdiri, ertangi kunini o'ylashi, aql-zakovatli, ko'pni ko'rgan, uzoqni ko'zlaydigan, irodasi mustahkam, tajribali insonni rahbar qilib saylash mumkin. Bu fikrlarni davom ettirgan holda mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoev ham rahbar xodimlar boshqaruvchilarning ijtimoiy hayotimizdagi rolga to'xtalib, tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbari -

bu Bosh vazir yoki uning o‘rinbosarlari bo‘ladimi, hukumat a‘zosi yoki hududlar hokimi bo‘ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lib qolishi kerak, deya xitob qilib, endi har birimiz, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining vazifasi - o‘zimiz mas‘ul bo‘lgan soha va tarmoqda ishlarning ahvolini tanqidiy baholash asosida zimmamizga yuklatilgan vazifalarni mas‘uliyat bilan bajarishni ta‘minlashdan iborat ekanligini ta‘kidlab o‘tganlar.

Maktabgacha ta‘lim tizimining ilk tamal toshi hisoblangan maktabgacha ta‘lim sohasida ham boshqaruv faoliyatini takomillashtirish maqsadida 2017-yil 30-sentabrda —Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF–5198-sonli farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi faoliyatini samarali tashkil etishni ta‘minlash va boshqaruvini qaytadan takomillashtirish to‘g‘risidagi qaror qabul qilindi. Bu qaror va farmoyishlarning qabul qilinishining asosiy sababi mustaqillik yillarida maktabgacha ta‘lim sohasida olib borilgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi uchun maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini boshqarish uni faoliyatini tubdan isloh etish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Darhaqiqat, bugungi kunda maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktorlarini to‘g‘ri tanlash, ularning kasbiga, shaxsiga xos xislarlarini anglagan holda boshqaruv faoliyatiga tayinlash muhim hisoblanadi. Buning uchun esa rahbar shaxsida ana shunday ezgu fazilatlar shakllangan bo‘lishi zarurdir. Boshqaruv faoliyatida boshqaruvchi shaxs kasbiy sifatlar bilan shaxsiy sifatlarga ham ega bo‘lishi lozim. Bu borada maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktor quyidagi kasbiy sifatlarni shakllantirib bormog‘i muhimdir:

- Maktabgacha ta‘lim tashkilotida ta‘lim-tarbiyani amalga oshirishda maqsadni aniq belgilay olishi;
- Maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktori pedagog jamoani diqqat bilan tinglashi;
- Maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktori o‘z jamoasining ishini xolisona baholay olishi, samimiy va bag‘rikenglik;
- Maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktori chiqaradigan qarorlari odilona bo‘lishi va shu orqali xodimlarni joy-joyiga qo‘ya olishi;
- Maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktori qattiqqo‘llik bilan birga rag‘batni ham babbaravar olib borishi;
- Maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktori o‘z imkoniyatlari va xodimlarning imkoniyatlaridan to‘la foydalanish;
- Maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktori muloqotda aniq va lo‘nda so‘zlay olishi;

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori jamoa tashkil etish va unda uyg'un muhitni ushlab tura olish qobiliyatiga ham ega bo'lishlari lozim.

Yuqorida aytib o'tilganidek direktor mustaqil fikrga ega bo'lishi, topqir va tashabbuskor bo'lishligi talab etiladi. Chunki, ayrim hollarda xodimlar xato qilsa ham, rahbar aniq, ibratli fikrlar aytib, to'g'ri yo'l-yo'riqlar ko'rsata olishi, har bir aytilgan fikr, qilingan ishga mustaqil baho bera olishi, zarur hollarda yaxshi bajarilgan ishlarni taqdirlashi mustaqil rahbar qiyofasini belgilovchi muhim psixologik xususiyatdir.

Direktorning yana bir sifati o'z-o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi, o'z-o'zini baholash va shu asosda boshqalarga nisbatan ham munosabatini tashkil etishi lozim. Boshliq sifatida madaniyatli bo'lishi va buni muomalasida, boshqalar bilan bo'ladigan kundalik muloqotlarda ko'rinishi lozim.

Direktorning muomala madaniyati: o'z o'rnida, joyida, aniq, tiniq, qisqa, lo'nda, samimiy so'zlashi va shu bilan birga suhbatdoshni tinglay olish qobiliyatidan iborat bo'lishi kerak. Ko'p hollarda direktor bilan xodimlar o'rtasida kelib chiqadigan shaxsiy ziddiyatlar tinglay olmaslik yoki tushuna olmaslikdan kelib chiqadi. Boshqalarning o'rniga o'zini qo'yish, uning his-kechinmalarini tushunish, empatiya (hamdardlik) hissi, so'zlashuvlarda sabr-toqatlilik muloqot madaniyatining muhim tomoni ekanligi ma'lumdir.

Boshqarish psixologik mahoratni talab etadi. Buning uchun biz direktor sifatida psixologik bilimlardan xabardor bo'lishimiz, shaxs psixologiyasi, jamoa psixologiyasi, guruh psixologiyasi va shu bilan birga har jamoa a'zosining individual psixologik jihatlari qobiliyat, xarakter, temperament tiplarini yaxshi bilish zarur. Boshqalar bilan muomala munosabatda, ularni boshqarishda individual psixologik xususiyatlarni hisobga olish ham o'rinli deb o'ylayman. Chunki har bir inson turli xil dunyoqarash, o'ziga xos xarakter xususiyat va shu bilan birga temperament tipiga ega bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, biz maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori sifatida ana shu bilimlarga ega bo'lsak jamoada ma'naviy muhitni sog'lom shakllantirishga, ish unumdorligini, samaradorligini oshirishga va shu bilan birga bizga ishonch bildirib saylagan insonlarni ishonchini oqlab, Vatanimizni yanada ravnaq topishiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lar edik.

Xulosa qiladigan bo'lsak Maktabgacha ta'lim tizimini ham rivojlantirishda maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatida rahbar kadrlarning shaxsiy-kasbiy sifatlari va uning kasbiy kamolot muammosini o'rganishimizda shaxsning kasbiy kamoloti uzoq davom etuvchi, ko'p jabhali va harakatchan jarayondir.

Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatida rahbar kadrlarning shaxsiy-kasbiy sifatlari va ularning kasbiy kamoloti o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarga shaxs-faoliyat yondashuvi prinsipi nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Albatta bu borada maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori shaxsiy va kasbiy sifatlarning shakllanishida halollik, adolat, kasbiy e'tiqod, vatanparvarlik kabi xislatlar xam muhim o'rin tutadi. Bu esa rahbar shaxsining shakllanishi uchun muhim va dolzarb masaladir.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 mayda PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori.